XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT SHAHRI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 4-sentabr VI-107-144-14-0-K/24 Toshkent shahri

Toshkent shahrining Uchtepa tumanidagi mahallalarning aniq chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi, “Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari to‘g‘risida”gi Qonunlari hamda Vazirlar Mahkamasining “Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo‘lish va tugatish, shuningdek ularning chegaralarini belgilash va o‘zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o‘zgartirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” 2014-yil 4-martdagi 48-son qaroriga asosan xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutining jamiyat hayotidagi rolini mustahkamlash va moliyaviy imkoniyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 16-avgustdagi PQ–353-son qarorining 4-bandi ijrosini ta’minlash yuzasidan Uchtepa tumani hokimining tumandagi mahallalarning chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi kiritgan taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Uchtepa tumani mahallalarning chegara chiziqlari tavsiflari 1-ilovaga muvofiq;

Uchtepa tumani mahallalari chegaralarining xaritalari albomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasining Toshkent shahar boshqarmasi (F.Mahmudxo‘jayev), Uchtepa tumani hokimligi (J.Alimdjanov):

mahallalar chegaralari o‘zgarishi bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘ini aholisi o‘rtasida tegishli tushuntirish ishlarini olib borish;

mahallalar hududida infratuzilmani rivojlantirish, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshirishda;

aholi sonini mahallalar kesimida hisobga olishda;

ijtimoiy himoyaga muhtoj va kam ta’minlangan oilalarga moddiy ko‘maklashishni tashkil etishda tasdiqlangan mahalla chegaralariga qat’iy amal qilinsin.

4. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasining Toshkent shahar boshqarmasi (F.Maxmudxo‘jayev), Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent shahar boshqarmasi (A.Yunusov), Toshkent shahar Soliq boshqarmasi (Y.Nasimdjanov),

Toshkent shahar Statistika boshqarmasi (L.Mirsoatov) mazkur qarorga asosan tegishli hujjatlarga o‘rnatilgan tartibda o‘zgartirishlar kiritsin hamda bu borada zarur choralarni ko‘rsin.

5. Toshkent shahar hokimligi Matbuot xizmatiga mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishi va www.toshkent.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlash tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi O.Jiyanboyev, Toshkent shahar hokimining birinchi o‘rinbosari B.Raxmonov va Toshkent shahar hokimining o‘rinbosari A.Xen zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi

UMURZAKOV
SHAVKAT
BURANOVICH

Xalq deputatlari Toshkent shahri
Kengashining
2024-yil 4-sentabrdagi
VI-107-144-14-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Toshkent shahar Uchtepa tumani mahallalarning chegara chiziqlari tavsiflari

1. “Shaftolizor” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

6819-son chegara nuqtasi Jarariq kollektorida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 51.83", L – 69° 10' 3.32".

6819-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 84, 38, 27, 61 va 59 metrli kesimlar bilan Uyg‘un ko‘chasining sharqiy tomoniga chiqadi, keyin uning sharqiy tomoni bo’ylab 5052-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5052-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 40.88", L – 69° 10' 4.89".

5052-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Istirohat ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 5061-son chegara nuqtasiga boradi.

5061-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy-g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 34.30", L – 69° 9' 52.59".

5061-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Istirihat ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 169 metr o‘tadi, keyin asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 95 metr, Shoir 1-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 26 metr o‘tadi, keyin Shoir 6-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab THAYga chiqadi, so‘ng ushbu yo‘l markazi bo‘ylab 58 metrdan keyin 5060-son chegara nuqtasiga boradi.

5060-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 41.73", L – 69° 9' 36.35".

5060-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Jarariq kollektorining eski o’zani bo’ylab 755 metr o’tadi, keyin

mazkur kollektor o'zani bo'ylab 6819-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig'i mazkur qismda ma'muriy chegara chizig'i bilan bir xil.

2. "Zarafshon" mahallasi chegara chizig'i tavsifi

6820-son chegara nuqtasi THAY markazida 23 metr g'arbda joylashgan bo'lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 42.01", L – 69° 9' 35.42".

6820-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig'i sharqiy yo'nalishda to'g'ri chiziq bo'yicha 5060-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig'i mazkur qismda ma'muriy chegara chizig'i bilan bir xil.

5060-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo'lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 41.73", L – 69° 9' 36.35".

5060-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig'i janubiy yo'nalishda THAY markazi bo'ylab 58 metr o'tadi va shu yo'nalishda 5062-son chegara nuqtasiga boradi.

5062-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo'lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 13.81", L – 69° 9' 24.29".

5062-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig'i janubiy yo'nalishda THAY markazi bo'ylab 5076-son chegara nuqtasiga boradi.

5076-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo'lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 2.04", L – 69° 9' 19.16".

5076-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig'i janubiy yo'nalishda THAY markazi bo'ylab 255 metr o'tadi va shu yo'nalishda 5074-son chegara nuqtasiga boradi.

5074-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo'lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 2.04", L – 69° 9' 19.16".

5074-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig'i janubiy yo'nalishda THAY markazi bo'ylab 5081-son chegara nuqtasiga boradi.

5081-son chegara nuqtasi Ko'kcha Darvoza ko'chasini kesib o'tuvchi ko'prikda joylashgan bo'lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 20.37", L – 69° 9' 6.30".

5081-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig'i janubiy yo'nalishda THAY markazi bo'ylab 5072-son chegara nuqtasiga boradi.

5072-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo'lib, uning koordinatalari: B – 41° 17' 47.15", L – 69° 9' 2.11".

5072-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda THAY markazi bo‘ylab 424 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5071-son chegara nuqtasiga boradi.

5071-son chegara nuqtasi Samarbonu ko‘chasining THAY bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 17' 26.01", L – 69° 8' 59.50".

5071-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Samarbonu ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy tomoni bo‘ylab 1041 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5077-son chegara nuqtasiga boradi.

5077-son chegara nuqtasi Qoraqamish kollektoridagi piyodalar o’tish ko’prigining janubiy-sharqiy tomonida, uning koordinatalari: B – 41° 17' 28.48", L – 69° 8' 12.15".

5077-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Qoraqamish kollektorining chap qirg‘ogidan 8 metr masofada o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 78 va 25 metrli kesimlar bilan 6820-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda Toshkent shahrining ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

3. “Bekobod” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5052-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 40.88", L – 69° 10' 4.89".

5052-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Istirohat ko‘chasidagi yashil maydon markazi bo‘ylab 5041-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5041-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 40.18", L – 69° 10' 28.59".

5041-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Bekobod ko‘chasi markazi bo‘ylab 361 metr, Hamkor ko‘chasi markazi bo‘ylab 151 metr o‘tadi, keyin umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Sadoqat ko‘chasi markazi bo‘ylab 685 metr o‘tadi, keyin asfalt yo‘l markazi bo‘ylab Mehmondo‘st ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 5053-son chegara nuqtasiga boradi.

5053-son chegara nuqtasi Sadoqat 1-tor ko‘chasining Mehmondo‘st ko‘chasi bilan tutasish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 27.18", L – 69° 9' 57.81".

5053-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Mehmondo‘st ko‘chasi markazi bo‘ylab Bekobod ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 66 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5061-son chegara nuqtasiga boradi.

5061-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy-g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 34.30", L – 69° 9' 52.59".

5061-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Istirohat ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 5052-son chegara nuqtasiga boradi.

4. “Bog‘ichinor” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5041-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 40.18", L – 69° 10' 28.59".

5041-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Istirohat ko‘chasidagi sayilgohning markazi bo‘ylab 5037-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5037-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 37.43", L – 69° 10' 59.59".

5037-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Degrez ko‘chasi markazi bo‘ylab Beshqayrag‘och ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 222 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5038-son chegara nuqtasiga boradi.

5038-son chegara nuqtasi Hamkor va Beshqayrag‘och ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 17.91", L – 69° 10' 43.53".

5038-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Hamkor ko‘chasi markazi bo‘ylab 295 va 151 metr o‘tadi, keyin Bekobod ko‘chasi makazi bo‘ylab 5041-son chegara nuqtasiga boradi.

5. “Istirohat” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5061-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy-g‘arbiy tomonida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 34.30", L – 69° 9' 52.59".

5061-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Bekobod ko‘chasiga o‘tadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 66 metr o‘tadi, so‘ng Mehmondo‘st ko‘chasi markazi bo‘ylab 5053-son chegara nuqtasiga boradi.

5053-son chegara nuqtasi Sadoqat 1-tor ko‘chasining Mehmondo‘st ko‘chasi bilan tutasish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 27.18", L – 69° 9' 57.81".

5053-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 72 metr, Sadoqat ko‘chasi markazi bo‘ylab 84 metr o‘tadi, keyin Sadoqat 1-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5058-son chegara nuqtasiga boradi.

5058-son chegara nuqtasi Sadoqat 1-tor ko‘chasining Xondamir 2-tor ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 13.12", L – 69° 9' 57.27".

5058-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda Xondamir 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5059-son chegara nuqtasiga boradi.

5059-son chegara nuqtasi Ibrat ko‘chasining Xondamir 2-tor ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 12.83", L – 69° 9' 47.63".

5059-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Xondamir 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab Taqachi ko‘chasiga chiqadi va ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 54 metr o‘tadi, keyin 450-MTM devoriga chiqadi va u bo‘yicha 76 metr o‘tadi, keyin Shamsiya ko‘chasiga chiqadi va uning markazi bo‘ylab 81 metr o‘tadi, keyin Mardlik ko‘chasi markazi bo‘ylab 205 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziqli 27 va 80 metrli kesimlar bilan 5062-son chegara nuqtasiga boradi.

5062-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 13.81", L – 69° 9' 24.29".

5062-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda THAY markazi bo‘ylab 844 metr o‘tadi, keyin Shoir 6-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab Shoir 1-tor ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 26 metr, asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 95 metr o‘tadi, so‘ng Istirohat ko‘chasidagi yashil maydonning shimoliy-g‘arbiy tomoni bo‘ylab 169 metrdan keyin 5061-son chegara nuqtasiga boradi.

6. “Degrez” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5037-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 37.43", L – 69° 10' 59.59".

5037-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Istirohat ko‘chasidagi sayilgohning markazi bo‘ylab 5036-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5036-son chegara nuqtasi Istirohat ko‘chasining Kichik halqa yo‘li bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 34.67", L – 69° 11' 38.23".

5036-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Kichik halqa yo‘li markazi bo‘ylab 5035-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5035-son chegara nuqtasi Beshqayrag‘och ko’chasi va Kichik halqa yo‘lining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 20.69", L – 69° 11' 35.29".

5035-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 203 metr, Asqad Muxtor ko‘chasi markazi bo‘ylab 131 metr o’tadi, keyin Degrez 8-tor ko‘markazi bo‘ylab 5034-son chegara nuqtasiga boradi.

5034-son chegara nuqtasi Degrez 8-tor ko‘chasining Dadil ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 7.88", L – 69° 11' 4.34".

5034-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Dadil ko‘chasi markazi bo‘ylab Beshqayrag‘och ko‘chasigacha boradi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 222 metr o‘tadi, so‘ng Degrez ko‘chasi markazi bo‘ylab 5037-son chegara nuqtasiga boradi.

7. “Qoryog‘di” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5053-son chegara nuqtasi Sadoqat 1-tor ko‘chasining Mehmondo‘st ko‘chasi bilan tutasish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 27.18", L – 69° 9' 57.81".

5053-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Mehmondo‘st ko‘chasi markazi bo‘ylab 118 metr, asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 72 metr o‘tdi, keyin Sadoqat ko‘chasi markazi bo‘ylab Hamkor ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 295 metrdan keyin 5038-son chegara nuqtasiga boradi.

5038-son chegara nuqtasi Hamkor va Beshqayrag‘och ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 17.91", L – 69° 10' 43.53".

5038-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 301 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5045-son chegara nuqtasiga boradi.

5045-son chegara nuqtasi Xondamir 2-tor ko‘chasining Beshqayrag‘och ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 11.93", L – 69° 10' 27.83".

5045-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Xondamir 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 645 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5058-son chegara nuqtasiga boradi.

5058-son chegara nuqtasi Sadoqat 1-tor ko‘chasining Xondamir 2-tor ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 13.12", L – 69° 9' 57.27".

5058-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Sadoqat 1-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab Sadoqat ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha bo‘ylab 84 metr o‘tadi, so‘ng asfalt yo‘l markazi bo‘ylab 72 metrdan keyin 5053-son chegara nuqtasiga boradi.

8. “Nishabariq” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5038-son chegara nuqtasi Hamkor ko‘chasi va Beshqayrag‘och ko‘chasining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 17.91", L – 69° 10' 43.53".

5038-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab Dadil ko‘chasigacha boradi, so’ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 496 metrdan keyin 5034-son chegara nuqtasiga boradi.

5034-son chegara nuqtasi Degrez 8-tor ko‘chasining Dadil ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 7.88", L – 69° 11' 4.34".

5034-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Dadil ko‘chasi markazi bo‘ylab Ko‘kcha Darvoza ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 62 metrdan keyin 5039-son chegara nuqtasiga boradi.

5039-son chegara nuqtasi Zakovat ko‘chasining Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 52.73", L – 69° 11' 11.97".

5039-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi markazi bo‘ylab 5032-son chegara nuqtasiga boradi.

5032-son chegara nuqtasi Jamshid va Dilkash ko‘chalarining Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 45.59", L – 69° 10' 50.95".

5032-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Dilkash ko‘chsi markazi bo‘ylab 5080-son chegara nuqtasiga boradi.

5080-son chegara nuqtasi Durbek 2-tor ko‘chasining Dilkash ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 59.54", L – 69° 10' 41.52".

5080-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Dilkash ko‘chsi markazi bo‘ylab Beshqayrag‘och ko‘chasiga chiqadi, so’ng mazkur ko‘cha markazi bo‘ylab 301 metrdan keyin 5038-son chegara nuqtasiga boradi.

9. “Shofayzibog‘” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5035-son chegara nuqtasi Beshqayrag‘och ko’chasi va Kichik halqa yo‘lining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 20.69", L – 69° 11' 35.29".

5035-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Kichik halqa yo‘li markazi bo‘ylab 5033-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5033-son chegara nuqtasi Ko‘kcha Darvoza ko‘chasini kesib o‘tuvchi ko‘prigida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 4.44", L – 69° 11' 35.74".

5033-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi markazi bo‘ylab Dadil ko‘chasigacha boradi, so’ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda mazkur ko‘cha markazi bo‘ylab 481 metrdan keyin 5034-son chegara nuqtasiga boradi.

5034-son chegara nuqtasi Degrez 8-tor ko‘chasining Dadil ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 7.88", L – 69° 11' 4.34".

5034-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Degrez 8-tor ko‘chsi markazi bo‘ylab Asqad Muxtor ko‘chasigacha boradi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 131 metr o’tadi, so’ng Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 203 metrdan keyin 5035-son chegara nuqtasiga boradi.

10. “O‘tkir” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5062-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 13.81", L – 69° 9' 24.29".

5062-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 80 va 27 metrli kesimlar bilan Mardlik ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 205 metr, Shamsiya ko‘chasi markazi bo‘ylab 81 metr o‘tadi, keyin 450-MTM devoriga chiqadi va u bo‘yicha 76 metr o‘tadi, so‘ng Taqachi ko‘chasiga chiqadi va ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 54 metr o‘tadi, keyin Xondamir 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5059-son chegara nuqtasiga boradi.

5059-son chegara nuqtasi Ibrat ko‘chasining Xondamir 2-tor ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 12.83", L – 69° 9' 47.63".

5059-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Ibrat ko‘chasi markazi bo‘ylab Beshqayrag‘och ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 5057-son chegara nuqtasiga boradi.

5057-son chegara nuqtasi Beshqayrag‘och ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 57.42", L – 69° 9' 50.67".

5057-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab Xodi Zarif ko‘chasigacha boradi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 244 metr, Zulfizar ko‘chasi markazi bo‘ylab 177 metr, Nashriyot tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 275 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 7 va 39 metrli kesimlar bilan 5076-son chegara nuqtasiga boradi.

5076-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 2.04", L – 69° 9' 19.16".

5076-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda THAY markazi bo‘ylab 5062-son chegara nuqtasiga boradi.

11. “Sharq guli” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5045-son chegara nuqtasi Xondamir 2-tor ko‘chasining Beshqayrag‘och ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 11.93", L – 69° 10' 27.83".

5045-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 318 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5054-son chegara nuqtasiga boradi.

5054-son chegara nuqtasi Ukkosha va Beshqayrag‘och ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 3.88", L – 69° 10' 7.23".

5054-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Ukkosha ko‘chasi markazi bo‘ylab Xondamir 2-tor ko‘chasiga chiqadi, so‘ng umumiy sharqiy yo‘nalishda Xondamir 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 645 metrdan keyin 5045-son chegara nuqtasiga boradi.

12. “Jarbuloq” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5059-son chegara nuqtasi Ibrat ko‘chasining Xondamir 2-tor ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 12.83", L – 69° 9' 47.63".

5059-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Xondamir 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5058-son chegara nuqtasiga boradi.

5058-son chegara nuqtasi Sadoqat 1-tor ko‘chasining Xondamir 2-tor ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 13.12", L – 69° 9' 57.27".

5058-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda Xondamir 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab Ukkosha ko‘chasigacha boradi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 5054-son chegara nuqtasiga boradi.

5054-son chegara nuqtasi Ukkosha va Beshqayrag‘och ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 3.88", L – 69° 10' 7.23".

5054-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab Ibrat ko‘chasigacha boradi, so’ng umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Ibrat ko‘chasi markazi bo‘ylab 479 metrdan keyin 5059-son chegara nuqtasiga boradi.

13. “Xondamir” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5045-son chegara nuqtasi Xondamir 2-tor ko‘chasining Beshqayrag‘och ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 11.93", L – 69° 10' 27.83".

5045-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 107 metr o‘tadi, so‘ng Dilkash ko‘chasi markazi bo‘ylab 5080-son chegara nuqtasiga boradi.

5080-son chegara nuqtasi Durbek 2-tor ko‘chasining Dilkash ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 59.54", L – 69° 10' 41.52".

5080-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Durbek 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab Durbek ko‘chasigacha boradi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 84 metr o‘tadi, keyin Quruvchi ko‘chasi markazi bo‘ylab 5044-son chegara nuqtasiga boradi.

5044-son chegara nuqtasi Quruvchi va Xondamir ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 55.58", L – 69° 10' 23.62".

5044-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Xondamir ko‘chasi markazi bo‘ylab Beshqayrag‘och ko‘chasigacha boradi, so’ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 318 metrdan keyin 5045-son chegara nuqtasiga boradi.

14. “Ibrat” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5054-son chegara nuqtasi Ukkosha va Beshqayrag‘och ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 3.88", L – 69° 10' 7.23".

5054-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab Xondamir ko‘chsigacha boradi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 5044-son chegara nuqtasiga boradi.

5044-son chegara nuqtasi Quruvchi va Xondamir ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 55.58", L – 69° 10' 23.62".

5044-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Xondamir ko‘chasi markazi bo‘ylab 238 metr, Xondamir 5-tor ko‘chasi

markazi bo‘ylab 224 metr, Ukkosha ko‘chasi markazi bo‘ylab 85 metr o‘tadi, keyin Lochin ko‘chasi markazi bo‘ylab 5056-son chegara nuqtasiga boradi.

5056-son chegara nuqtasi Shirinquduq va Lochin ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 41.94", L – 69° 10' 19.00".

5056-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Shirinquduq ko‘chasi markazi bo‘ylab Bayroq ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 82 metr, Ibrat ko‘chasi markazi bo‘ylab 85 metr, To‘qimachi tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 182 metr o‘tadi, keyin maktab chagarasiga chiqadi va u bo‘yicha 264 metr o‘tadi, so‘ng to‘g‘ri chiziq bo‘yicha 5057-son chegara nuqtasiga boradi.

5057-son chegara nuqtasi Beshqayrag‘och ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 57.42", L – 69° 9' 50.67".

5057-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 118 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5054-son chegara nuqtasiga boradi.

15. “Paxtakor” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5033-son chegara nuqtasi Ko‘kcha Darvoza ko‘chasini kesib o‘tuvchi ko‘prigida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 4.44", L – 69° 11' 35.74".

5033-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Kichik halqa yo‘li markazi bo‘ylab 5031-son chegara nuqtasiga boradi. Mahalla chegara chizig‘i mazkur qismda ma’muriy chegara chizig‘i bilan bir xil.

5031-son chegara nuqtasi Bo‘zsuv kanalidagi ko‘prikda joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 10.67", L – 69° 11' 37.87".

5031-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Bo‘zsuv kanali markazi bo‘ylab 311 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Rafiqdarvoz ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 134 metr, Farovon ko‘chasi markazi bo‘ylab 289 metr, Ali Qushchi ko‘chasi markazi bo‘ylab 150 metr o’tadi, so’ng Zakovat ko‘chasi markazi bo‘ylab 829 metrdan keyin 5039-son chegara nuqtasiga boradi.

5039-son chegara nuqtasi Zakovat ko‘chasining Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 52.73", L – 69° 11' 11.97".

5039-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi markazi bo‘ylab 62 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5033-son chegara nuqtasiga boradi.

16. “Zulfizar” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5076-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 19' 2.04", L – 69° 9' 19.16".

5076-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 39 va 7 metrli kesimlar bilan Nashriyot tor ko‘chasiga o‘tadi, keyin shu ko‘cha markazi bo‘ylab 275 metr, Zulfizar ko‘chasi markazi bo‘ylab 177 metr, Xodi Zarif ko‘chasi markazi bo‘ylab 244 metr o‘tadi, keyin janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 5063-son chegara nuqtasiga boradi.

5063-son chegara nuqtasi To‘qimachi ko‘chasining Beshqayrag‘och ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 50.23", L – 69° 9' 32.22".

5063-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab THAYga chiqadi, so’ng ushbu yo‘l markazi bo‘ylab 255 metrdan keyin 5076-son chegara nuqtasiga boradi.

17. “Sharq yulduzi” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5080-son chegara nuqtasi Durbek 2-tor ko‘chasining Dilkash ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 59.54", L – 69° 10' 41.52".

5080-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda Dilkash ko‘chasi markazi bo‘ylab 5032-son chegara nuqtasiga boradi.

5032-son chegara nuqtasi Jamshid va Dilkash o‘chalarining Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 45.59", L – 69° 10' 50.95".

5032-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi markazi bo‘ylab Ibrat ko‘chasigacha boradi, keyin umumiy shimoliy yo‘nalishda Ibrat ko‘chasi markazi bo‘ylab 168 metr o‘tadi, so‘ng Lochin ko‘chasi markazi bo‘ylab 5056-son chegara nuqtasiga boradi.

5056-son chegara nuqtasi Shirinquduq va Lochin ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 41.94", L – 69° 10' 19.00".

5056-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy yo‘nalishda Lochin ko‘chasi markazi bo‘ylab Ukkosha ko‘chasigacha boradi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 85 metr, Xondamir 5-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 224 metr o‘tadi, so‘ng Xondamir ko‘chasi markazi bo‘ylab 5044-son chegara nuqtasiga boradi.

5044-son chegara nuqtasi Quruvchi va Xondamir ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 55.58", L – 69° 10' 23.62".

5044-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy sharqiy yo‘nalishda Quruvchi ko‘chasi markazi bo‘ylab Durbek ko‘chasigacha boradi, keyin mazkur ko‘cha markazi bo‘ylab 84 metr o‘tadi, keyin Durbek 2-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5080-son chegara nuqtasiga boradi.

18. “Beshqayrag‘och” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5057-son chegara nuqtasi Beshqayrag‘och ko‘chasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 57.42", L – 69° 9' 50.67".

5057-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziq bo‘yicha maktab chagarasiga chiqadi, keyin ushbu chegara bo‘ylab 264 metr o‘tadi, keyin To‘qimachi tor ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 182 metr, Ibrat ko‘chasi markazi bo‘ylab 85 metr, Bayroq ko‘chasi markazi bo‘ylab 82 metr o‘tadi, keyin Shirinquduq ko‘chasi markazi bo‘ylab 5056-son chegara nuqtasiga boradi.

5056-son chegara nuqtasi Shirinquduq va Lochin ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 41.94", L – 69° 10' 19.00".

5056-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Lochin ko‘chasi markazi bo‘ylab Ibrat ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 168 va 241 metr masofalarni o‘tadi, so‘ng Nazarbek 3-tor ko‘chsi markazi bo‘ylab 5055-son chegara nuqtasiga boradi.

5055-son chegara nuqtasi Nazarbek 3-tor va Hayratiy ko‘chalarining Nazarbek ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 26.77", L – 69° 10' 7.16".

5055-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy g‘arbiy yo‘nalishda Nazarbek ko‘chasi markazi bo‘ylab Nazarbek 2-tor ko‘chasigacha boradi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab To‘qimachi ko‘chasiga chiqadi, so‘ng ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 128 metrdan keyin 5065-son chegara nuqtasiga boradi.

5065-son chegara nuqtasi Ko‘kcha Darvoza va To‘qimachi ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 26.60", L – 69° 9' 41.36".

5065-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda To‘qimachilar ko‘chasi markazi bo‘ylab 536 metr o’tadi va shu yo’nalishda 5063-son chegara nuqtasiga boradi.

5063-son chegara nuqtasi To‘qimachi ko‘chasining Beshqayrag‘och ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 50.23", L – 69° 9' 32.22".

5063-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 299 metr o’tadi va shu yo‘nalishda 5057-son chegara nuqtasiga boradi.

19. “Xurshid” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5063-son chegara nuqtasi To‘qimachi ko‘chasining Beshqayrag‘och ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 50.23", L – 69° 9' 32.22".

5063-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda To‘qimachi ko‘chasi markazi bo‘ylab Atoiy 3-tor ko‘chasigacha boradi, so’ng ushbu ko’cha markazi bo‘ylab 264 metrdan keyin 5075-son chegara nuqtasiga boradi.

5075-son chegara nuqtasi Atoiy 3-tor va Zulfizar ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 40.83", L – 69° 9' 24.05".

5075-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda Atoiy 3-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5074-son chegara nuqtasiga boradi.

5074-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 44.06", L – 69° 9' 11.50".

5074-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda THAY markazi bo‘ylab 328 metr o‘tadi, keyin Beshqayrag‘och ko‘chasi markazi bo‘ylab 5063-son chegara nuqtasiga boradi.

20. “Ko‘kcha-Oqtepa” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5039-son chegara nuqtasi Zakovat ko‘chasining Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 52.73", L – 69° 11' 11.97".

5039-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy yo‘nalishda Zakovat ko‘chasi markazi bo‘ylab 829 metr, Ali Qushchi ko‘chasi markazi bo‘ylab 150 metr, Farovon ko‘chasi markazi bo‘ylab 289 metr va Rafiqdarvoz ko‘chasi markazi bo‘ylab 134 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo‘yicha Bo‘zsuv kanali markaziga chiqadi, keyin umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Bo‘zsuv kanali markazi bo‘ylab 5040-son chegara nuqtasiga boradi.

5040-son chegara nuqtasi Bo‘zsuv kanali markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 17' 56.17", L – 69° 10' 48.05.

5040-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda to‘g‘ri chiziqli 54, 4, 13, 15, 39, 23, 104 va 44 metrli kesimlar bilan noturar obyekt chegarasiga chiqadi, keyin ushbu chegara bo‘ylab 370 metr o‘tadi, so‘ng Yusuf Sakkokiy ko‘chasiga chiqadi va ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 58 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziq bo’yicha 505-MTM devoriga o‘tadi, keyin ushbu devor bo‘ylab 137 metr o‘tadi, keyin Zakariya Roziy ko‘chasiga o’tgan holda, undagi asfalt yo’lning janubiy-sharqiy tomoni bo‘ylab 64 metr o‘tadi, so‘ng Zakariya Roziy 1-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5042-son chegara nuqtasiga boradi.

5042-son chegara nuqtasi Birlik kanalidagi quvur ustida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 23.80", L – 69° 10' 31.38".

5042-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Birlik kanali markazi bo‘ylab 477 metr o‘tadi, keyin noturar obyekt devoriga o‘tadi, so‘ng ushbu devor bo‘ylab 130 metr, 492-MTM devori bo‘ylab 80 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 21 va 45 metrli kesimlar bilan Ko‘kcha kanaliga chiqadi, keyin kanal markazi bo‘ylab 58 metr o‘tadi, so‘ng Jamshid ko‘chasining g‘arbiy tomoni bo‘ylab 74 metrdan keyin 5032-son chegara nuqtasiga boradi.

5032-son chegara nuqtasi Jamshid va Dilkash ko‘chalarining Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 45.59", L – 69° 10' 50.95".

5032-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi markazi bo‘ylab 5039-son chegara nuqtasiga boradi.

21. “Abdulla Qodiriy” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5032-son chegara nuqtasi Jamshid va Dilkash ko‘chalarining Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 45.59", L – 69° 10' 50.95".

5032-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Jamshid ko‘chasidagi asfalt yo‘lning g‘arbiy tomoni bo‘ylab 74 metr o‘tadi, keyin Ko‘kcha kanali markazi bo‘ylab 58 metr o‘tadi, keyin to‘g‘ri chiziqli 45 va 21 metrli kesimlar bilan 492-MTM devoriga chiqadi, keyin ushbu devor bo‘ylab 80 metr, noturar obyekt devori bo‘ylab 130 metr o‘tadi, so‘ng Birlik kanaliga o‘tadi va uning markazi bo‘ylab 477 metrdan keyin 5042-son chegara nuqtasiga boradi.

5042-son chegara nuqtasi Birlik kanalidagi quvur ustida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 23.80", L – 69° 10' 31.38".

5042-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda Birlik kanali markazi bo‘ylab 276 metr o’tadi, keyin to’g’ri chiziq bo’yicha Zamaxshariy 1-tor ko‘chasiga chiqadi, keyin ushbu ko‘cha markazi bo‘ylab 215 metr o‘tadi, so‘ng Jurjoniy ko‘chasi markazi bo‘ylab 5043-son chegara nuqtasiga boradi.

5043-son chegara nuqtasi Jurjoniy, Mahorat va Nazarbek ko‘chalarining tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 13.96", L – 69° 10' 14.28".

5043-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda Nazarbek ko‘chasi markazi bo‘ylab 193 metr o‘tadi va shu yo‘nalishda 5055-son chegara nuqtasiga boradi.

5055-son chegara nuqtasi Nazarbek 3-tor va Hayratiy ko‘chalarining Nazarbek ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 26.77", L – 69° 10' 7.16".

5055-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Nazarbek 3-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 360 metr, Ibrat ko‘chasi markazi bo‘ylab 241 metr o‘tadi, so‘ng Ko‘kcha darvoza ko‘chasi markazi bo‘ylab 5032-son chegara nuqtasiga boradi.

22. “Quyi Darxon” mahallasi chegara chizig‘i tavsifi

5074-son chegara nuqtasi THAY markazida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 44.06", L – 69° 9' 11.50".

5074-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i sharqiy yo‘nalishda Atoiy 3-tor ko‘chasi markazi bo‘ylab 5075-son chegara nuqtasiga boradi.

5075-son chegara nuqtasi Atoiy 3-tor va Zulfizar ko‘chalarining kesishish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 40.83", L – 69° 9' 24.05".

5075-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishda Zulfizar ko‘chasi markazi bo‘ylab 5073-son chegara nuqtasiga boradi.

5073-son chegara nuqtasi Ko‘rkam va Zulfizar ko‘chalarining Ko‘kcha Davoza ko‘chasi bilan tutashish nuqtasida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 18.82", L – 69° 9' 21.17".

5073-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i g‘arbiy yo‘nalishda Ko‘kcha Darvoza ko‘chasi markazi bo‘ylab 5081-son chegara nuqtasiga boradi.

5081-son chegara nuqtasi Ko‘kcha Darvoza ko‘chasidan o‘tuvchi ko‘prigida joylashgan bo‘lib, uning koordinatalari: B – 41° 18' 20.37", L – 69° 9' 6.30".

5081-son chegara nuqtasidan mahalla chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda THAY markazi bo‘ylab 5074-son chegara nuqtasiga boradi.

